

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMLI
ANDIJON DAVLAT UNVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI
BIOLOGIYA VA EKOLOGIYA KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi
IV bosqich talabasi Homidov Jamshidbekning

**“Kasb-hunar kollejlarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik
tadbirlar o'tkazish va ularning ahamiyati”**

mavzusida 5630100 - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi D. Usmonov

Andijon-2016

Mundarija

Kirish	3
I Bob. Ekologik fan, ta'lim va tarbiya	6
II Bob. Ekologiyada madaniyat va ma'naviyat	11
2.1 Ekologiyada madaniyat.....	11
2.2 Ekologiyada ma'naviyat.....	15
III Bob. Kasb-hunar kollejlarda tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik tadbirlar o'tkazishning ahamiyati	20
3.1 Qushlar kuniga bag'ishlangan ekologik tadbir senariysi.....	21
3.2 Qo'riqhonalar va milliy bog'lar kuniga bag'shlangan ekologik tadbir senariysi.....	28
3.3 Suv hayot manbai mavzusida ekologik tadbir senariysi.....	34
3.4 Tabiatning o'zi tabiiy ekologik tadbir senariysi.....	42
Xulosa	45
Foydalanilgan adabiyotlar	48
Ilovalar	50

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: talabalarga ekologik tarbiya berish, gigienik tarbiyalash.

Ma'lumki, istiqlol yillarida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish va rivojlantirish masalasi davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, Prezidentimiz Islom Karimovning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Yurtimizdagi barcha islohotlar qatori bu sohadagi tarixiy o'zgarishlar ham davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi va rahnamoligi ostida amalga oshirilmoqda. Xususan, ushbu sohada tub burilish yasagan, ta'limning ma'no-mazmunini butunlay o'zgartirib yuborgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi kabi mustaqil taraqqiyotimizda tom ma'noda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muhim hujjatlar Yurtboshimizning yosh avlod haqidagi g'amxo'rlik va e'tiborining amaliy ifodasi sifatida vujudga kelganini barchamiz yaxshi bilamiz. Aynan ana shu qonun hujjatlari asosida diyorimizda ta'limning bugungi talablarga to'liq javob beradigan zamonaviy modeli shakllandi va uning samarali faoliyati nafaqat o'zimizda, balki dunyo miqyosida ham tan olinmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or milliy va umumbashariy bilim hamda tajribalar, an'ana va qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ushbu modelda ta'limni ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda olib borish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Bunday kontseptual qarash Prezidentimizning ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, yosh avlod kelajagi, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz va Vatanimiz istiqboliga daxldor bo'lgan barcha chiqishlarida, kitob va risolalarida o'z aksini topib kelmoqda.

Ayniqsa, 2008 yilda "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan chop etilgan, Respublikamiz Prezidentining mamlakatimiz yoshlariga bag'ishlab yozilgan, butun

ma'no-mazmuni bugungi murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni mavjud ma'naviy tahdid va xatarlardan asrash, ezgu g'oyalar bilan qurollantirish ruhi bilan sug'orilgan «**Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch**» asarida boshqa ko'pgina masalalar bilan birga, mazkur muammoning mohiyati va ahamiyati, uni hal etish yo'llari to'g'risida aniq-ravshan ilmiy-amaliy xulosalar bayon qilinib, maqsad va vazifalar belgilab berildi. **“Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”**, deb ta'kidlaydi muallif. Haqiqatdan ham, Sharq dunyosida qadim-qadimdan tarbiya ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ifodasi bo'lib kelganini inobatga oladigan bo'lsak, bu so'zlar bugungi kunda ta'lim jarayonini ma'naviy tarbiya bilan ekologik tarbiyani uyg'un olib borishda oldimizga katta vazifalar qo'yadi. [1]

Shu asosda uzluksiz ta'lim tizimida atrof-muhit muhofazasi va ekologik ta'lim tarbiya ishlarini joriy etish soha mutasaddilari, ustoz va murabbiylar oldidagi kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim masalaga aylanib bormoqda.

Bu masalani amalga oshirishda kasb-hunar kollejlari tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida bevosita talabalarning ekologik dunyoqarashlarini shakllantirib boriladi. Bu borada tabiiy fanlar tizimida ekologik tadbirlar katta amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqotning maqsadi: talabalarga tabiiy fanlarni o'qitishda samarali usullardan foydalanishni tadbiq qilish. Hozirgi davrda yoshlarning ekologik bilimi, uning hayotiy ehtiyojlarini qondirish va biosferani asrashga yo'naltirilganligi o'zaro aloqada integral xarakter kasb etishi, ularning qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar ekologik muammoli vaziyatlarni hal etishga jalb qilish zarurligini talab qiladi.

Tadqiqotning vazifalari: Kasb-hunar kollejlari tabiiy fanlarni o'qitish orqali talabalar tabiat, hayvonot hamda atrof-muhit to'g'risida ta'lim va tarbiya oladilar. Bunda interfaol metodlardan foydalanishda eng samarali usullarini tanlab olib, fanga tatbiq qilishni taqozo etadi. Fanning oldiga qo'yilgan ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda sinfdan tashqari ishlar to'garaklar va tadbirlar

muhim o'rin egallaydi. Bitiruv malakaviy ishda fanning oldidagi yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda ekologik tadbirlar o'tkazishni amaliy ahamiyatini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: kasb-hunar kolleji talabalari va ekologik darslar hamda tadbirlar.

Tadqiqot metodlari: ko'rgazmali, amaliy va og'zaki.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari: bu tadqiqotni amalda qo'llab erishgan yutuqlar shunda bo'ldiki:

- talabalar jamoada ishlash natijasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat ruhida tarbiyalandi;
- ekologik madaniyat shakllandi;
- bilimlarini amalda qo'llash natijasida yanada mustaxkamladi.

Ishning hajmi: ushbu bitiruv malakaviy ishi – kirish qismi, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar. 52 sahifadan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati: Talabalarning ekologik tadbirlarda ishtirok etishi, ularning ongi, tabiatga hamda sog'lom turmush tarziga ma'suliyatli bo'lishi kabi sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

1-Bob. Ekologik fan, ta'lim va tarbiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida "Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlantirish, insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli va tajovuzkor o'zgarishlaridan himoya qilish" bugungi kunda respublikamiz uchun eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, shuning uchun ham ekologik harakat vakillariga Qonunchilik palatasidan 15 ta joy ajratilganligi haqida ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008- yil 18- sentabr 212-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2008-2012- yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturining 1-bandida uzluksiz ekologik va barqaror rivojlanish uchun ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ekologik ilm-fanni rivojlantirish, ekologik bilimlarni keng targ'ib qilish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'limi vazirliklari tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish uchun ta'lim bo'yicha Dekadasi hamda BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasining Strategiyasini O'zbekistonda bajarilishiga ko'maklashish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi 2010-yil dekabrda qabul qilindi. Ushbu dastur va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 31-yanvarda tasdiqlangan ish rejasiga 2011-2012- o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ekologiya va tabiatdan foydalanish

sohasiga oid o'quv, o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirish va ularni amalga joriy etish vazifalari kiritilgan.

Ekologik ta'limni zamon talablaridan chetda qolib ketmasligi, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonun hamda Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida ko'rsatilgan uzluksizlik tamoyillariga moslashishi qanday bo'lmog'i kerak, degan savolga javob topishdadir.

Hammamiz garchand ta'lim so'zini kuniga juda bo'lmaganda bir marotaba tilga olsakda, lekin uning umume'tirof etilgan tushunchasiga o'z e'tiborimizni doimo ham qaratmaymiz. Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi, to'g'rirog'i tizimi. Zero, ta'limning uzluksizligi tizimlashgandir.

Uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlari, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitidir. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunning 9-moddasiga binoan milliy uzluksiz ta'lim tizimi quyidagi turlardan iborat:

- 1) maktabgacha ta'lim;
- 2) umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim;
- 3) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- 4) oliy ta'lim;
- 5) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- 6) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Ta'lim to'g'risidagi qonun bilan bir qatorda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir, deyilgan.

Mustaqillik tufayligina milliy ta'lim turlari o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etildi. Unda o'ziga xos va mahalliy sharoitga mos ravishda yangi milliy ta'lim tizimi shakllanmoqda. Rivojlangan davlatlarning

ta'lim tizimi tajribasi respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan tarzda amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Mazkur jarayondan ekologik bilim va tarbiya ham chetda turmayapti. Zero, ekologiya, tarix, ona tili va adabiyot, milliy g'oya va g'urur fanlari kabi yoshlarimizni yukasak ma'naviyatli shaxs qilib tarbiyalash, tabiat bilan jamiyat qonunlarini uyg'unlashtira oladigan kadrlar qilib yetishtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi. [2]

Uzluksiz ekologik ta'lim – milliy ta'lim tizimining barcha bosqichlarini o'zida qamrab oluvchi va uni ierarxik pog'onada joylashtiruvchi, bilim berishni oddiydan murakkab hamda ixtisoslikka tomon olib boruvchi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhiti. Shuning uchun ham ekologik ta'lim va tarbiyani milliy uzluksiz ta'limning barcha turlarida qo'llashni quyidagicha olib borish tavsiya etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida (bolalar bog'chasi, oila va nodavlat muassasalari) bolalarning ekologik ongi ularning ko'ziga yaqqol tashlanayotgan atrof tabiiy muhit (yer, suv, osmon, quyosh, o'simlik va hayvonot dunyosi kabilar) bilan "Ona tabiat" mavzusida ochiq havoda tanishtiruv soatlari yoki vaqtlarini o'tkazish va rasmlar chizdirish, atrof olam haqidagi she'rlarni yodlatish, mashqlarni bajartirish va turli mavzudagi o'yinlarni o'ynatishdan boshlanadi. Mazkur muassasalarda an'anaviy "Bayram tadbirlari"ni ekologik madaniyat 11 yanvar – qo'riqxonalar, 1 mart – xalqaro qushlar, 21 mart – navro'z, 22 aprel – xalqaro Yer (planetasi), 5 iyun – butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kabi 20 dan ziyod ekologik kunlarga (Internetdan topish mumkin) bag'ishlab o'tkaziladi. Ekologik ta'limga oid ilk tasavvurlar aynan bolaning ona tabiatni his etishidan boshlanadi. Qo'shimcha ta'limda esa bola va uning ota-onalariga ekologiyaga yo'naltirilgan viktorina, topishmoq va uy vazifalari beriladi. [11]

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Ekologik ta'lim bolalarning yoshilariga qarab asosan ikki, ya'ni boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida "Geografiya", "Boiligiya", Fizika" va hattoki "Tarix" kabi fanlarga integrallashgan yoki tadbiiq etilgan o'quv mavzulari asosida olib boriladi. Lekin ekologik ta'lim o'zaro uzviy bog'lanmagan va muvofiqlashmagan. Maktabdan

tashqari ekologik ta'lim O'zbekistonda "Bioekosan" muassasasi tomonidan to'g'arak va turli shakldagi tanlovlar orqali olib boriladi.

Maktab va maktabdan tashqari ta'limda ekologiya hozirgidek integrallashgan tarzda emas, balki matematika, fizika, ona tili, xorijiy tillar kabi maxsus o'quv kurslarini, juda bo'lmaganda yuqori 8 – 9-sinflarda, o'qitilish qoidasidan kelib chiqqan tarzda amalga oshirilgani ma'qul. Chunki ekologiya – organizmlar o'zaro va ularni atrof-muhiti bilan bo'ladigan qonuniyatlarni tadqiq etuvchi fan sohasi, unga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi va ushbu munosabatlarni optimallashtirishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog'idir. Differensiallik bolalarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi sinflar bilan farqlanish asosida tashkil etiladi. Albatta, bunda bilim olish oddiydan murakkabga tomon ierarxik pog'onalash, ya'ni **tizimlash orqali tashkil etiladi va yuqori sinflarda "O'zbekiston ekologiyasi" o'quv kursi bilan yakunlanadi. Chunki yoshlarga milliy g'oya va g'ururni shakllantirish maqsadida "O'zbekiston tarixi" o'quv kursi bilan bir qatorda "O'zbekiston ekologiyasi"ni o'qitish maqsadga movofiqdir. Bu uning davlat va jamiyat uchun naqadar zarurligini ko'rsatadi va umummajburiy xususiyatlarini namoyon etadi hamda yagona maqsad sari intiltiradi.** [3]

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limda ekologiya tabaqalashgan tarzda amalga oshiriladi. Akademik litseylarning noekologik ta'lim muassasalarida, oliy ta'lim talablaridan kelib chiqqan tarzda, "Umumiy ekologiya" o'quv kursi sifatida o'tilgani ma'qul. Unda umum ekologik ta'lim talablari bilan bir qatorda, atrof tabiatni muhofaza qilishning kundalik qoidalari va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanishning ekologik xususiyatlari ochib beriladi.

Kasb-hunar kollejlarning yo'nalishlariga mos ravishda "Kasbiy ekologiya" o'tilishi mantiqan to'g'ridir. Masalan, pedagogika kollejlari - "Ekologiyani o'qitish metodikasi", iqtisodiyotda - "Iqtisodiy ekologiya", turizm va servisda - "Ekoturizm asoslari" yoki "Ekoturistik xizmatlar"ni o'tish foydadan holi emas. Bu bilan bitiruvchilarning amaliy ekologik bilim va ko'nikmalarini shakllantiriladi va

ularni ishga joylashishlari osonlashadi. Ayniqsa majburiy ta'lim tizimidagi barcha yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'limning noekologik bakalavr yo'nalishlarida, xuddi kasb-hunar kollejlardak, ekologik ta'lim talabalarini tanlagan kasblariga qarab o'qitilishini tashkillashtirish BMTning barqaror rivojlanish talablariga mos tushadi.

Ekologik yo'nalishdagi bakalavriaturada ekologik ta'lim maktab yoki akademik litseydagi ekologiya va tabiatdan foydalanishga oid o'quv kurslarining nomi va mazmunini zinhor qaytarishi kerak emas. Bu esa o'ta mas'uliyatli, ekologiyaning ijtimoiy nufuziga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi holatdir.

2-Bob. Ekologiyada madaniyat va ma'naviyat

Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri respublikamiz axolisining ekologik madaniyatini va ma'naviyatini oshirish masalasidir. Respublikamizning har bir katta yoshli tajribali fuqarosidan kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni sog'lom fikr, yaxshi odob-axloq, bilim olishga chanqoqlik ruhida hamda keng dunyoqarashni rivojlantirishni talab qilinadi.

Inson yoshlikda tarbiyalanmasa, kerakli bilimni olmasa, uning dunyoviy muammolar, ayniqsa, ekologik global masshtabdagi masalalar to'g'risida uning dunyoqarashini shakllantirish qiyin bo'ladi.

Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. fuqarolarga murojat qilib shunday deganlar "Ilm o'rganing: ilm zulmatda quyosh, sayoxatda hamroh, yolg'izlikda yo'ldosh, begona yurtda sirdosh, og'ir damda hamdard, dushmanga qarshi qurol". Bu bor haqiqat. Payg'ambarimiz o'z fuqarolarini hozirda va kelajakda bilimli bolishlarini juda istagan edi. Istaklari ko'p jixatdan amalga oshdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Payg'ambarimizdan so'ng ming-minglab olimlar, faylasuflar, matematiklar, tibbiyot, biologiya va boshqa fanlardan juda katta nufuzli olimlar, shoirlar, mutafakkirlar, allomalar yetishib chiqdi.

Markaziy Osiyo mutafakkir olimlardan Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil Jurjoniyy, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa juda ko'p siymolarni eslashimiz mumkin. Ular qoldirgan asarlar xalqimizning eng katta boyliklari hisoblanadi, negaki ular tomonidan qoldirilgan ilmiy manbaalar

xalqimizning har tomonidan tarbiyalashda, barkamol avlodlarni yetkazishda eng kerakli tayanch bo‘lmoqda.

Ekologik ta’lim tarbiya jarayoni tarixiga nazar tashlasak, bizlarga qoldirilgan noyob ko‘p nodir manbaalar borki, ular hozirda insonlarga tarbiya berishda katta ahamiyat kasb qiladi, jumladan, Qur’oni Karim, payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v va ularning sahobalari yozib qoldirgan hadisleri insonlarni tarbiyalashda bebaho bilim manbaalri bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu kitoblarda ekologik yorqin fikrlar, g‘oyalar bayon qilingan. Shuningdek ko‘pgina buyuk allomalar o‘zlarining asarlarida koinot va zamin odamlar tasirida gullab yashnashini bashorat qilganlar. Bizning davrimizga kelib ekologiya fani nufuzli fanga aylanib juda ko‘p fanlar bilan integratsiyalashgan holatda o‘ta murakkab ekologik muammolarni har tomonlama o‘rganishga va ekologik noqulayliklarni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqishga muvofiq bo‘lmoqda, ammo hali yechimini topmagan muammolar juda ko‘p bularni oqilona yechishning birdan bir yo‘li ekologik ta’limotni yanada rivojlantirib, axolini yoshidan qarigacha o‘qitilsa bu borada ma’naviy qashshoqlikdan qutulmasa ona tabiat bizni kechirmaydi. Buning uchun ekologik madaniyatni, ma’naviyatni yuqori darjajaga ko‘tarish ekologik ta’lim va tarbiya beruvchi haqiqiy vatanparvar o‘qituvchi pedogoglar tayyorlash, kasb-hunar kollejlari talabalarini va maktab talabalarini malakasini oshirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda.

Respublikamiz Prezidenti o‘zining 2008-yilda chop etilgan “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” nomli kitobida quyidagilarni yozgan. “Saxrodagi sayyoh har doim bulog‘dan chanqog‘ini bosadi. Huddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma’naviyat chasmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, qarindosh urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalqimizning mustaqil davlatimizga sadoqati, insonlarga hurmat, ishonch, hotira, vijdon, erkinlik, ma’naviyatning ma’nosi ana shunday keng. Ma’naviy qashshoq bo‘lgan odam to‘q, farovon madaniy turmush kechirish meyorini ham bilmaydi. Ma’naviyat inson hayotini go‘zallashtiruvchi turmush hayotga mazmun va mohiyat bag‘ishlovchi eng muhim omillardan biri”. [1]

Tarix saboqlaridan shu narsa aniq va ravshan deydi, filosof olimlar - qaysi bir davlat yoki jamiyat o'zining moddiy boyliklariga ishonib, asosiy e'tiborni faqat uni ko'paytirishga qaratib, xalqning madaniyatini insonning ma'naviy ehtiyojlarini o'ylamas ekan, u albatta inqirozga uchraydi".

Prezidentimiz aytgandek, mustaqil davlatimizga sadoqatli bo'lish uning tabiiy resurslari bo'lmish suv, yer, o'simlik va hayvonot dunyosi. Yerdan va uning qarida joylashgan qazilmalardan aql-idrok bilan foydalanish, ona tabiatimizni pokizaligini ko'z qorachig'imizday asrash shu zaminda yashayotgan axolini sog'ligini saqlamoq bu ham madaniyatning yuqorida ekanligidan dalolat beradi. Ma'lumingiz bo'lsinki ming yillar davomida Markaziy Osiyoda, Turkistonda, shu jumladan diyorumiz va uning xalqlarida ekologik madaniyat va ma'naviyati yuqori bo'lgan, yani ozodagarchilik, tabiatni asrash odat tusiga kirgan.

Xalqimiz tabiatning eng asosiy hayotbaxsh omillaridan suv havzalarini toza tutishga katta ahamiyat berganlar, ifloslangan suvni kasallik tarqatishdagi ro'lini bilganlar. Hatto suvga tupurish, yuvindilarni, chiqindilarni tashlashni gunoh bilib "Suvga tupurma, turli ahlatlar bilan bulg'atma, sutga suv qo'shma, bu oqlik katta gunoh boladi, qushlarni o'ldirma, hatto chumolini ham bosib o'tma, harom-harish yurma, ishing o'ngidan kelmaydi, pokiza yur aks holda katta gunoh bo'ladi" – degan so'zlar bilan yoshlarga ahloqiy ma'naviy ozuqa berib tarbiyalaganlar. Bunday tarbiyaviy ishlar ota- buvalarimizni qon-qoniga singib ketgan, shuning uchun ham yosh avlodni tarbiyasiga katta ahamiyat berganlar va tarbiyalaganlar. Ming afsuski, bugunga kelib bu so'zlar, urf-odatlar asta-sekin unutilib ketmoqda. Sigareta chekish, maishatbozlikka berilish avjiga chiqmoqda, insof, iymon degan tushunchalarni bazi birlar eshitishni ham istamaydilar. Bularning hammasini tiklashga mamlakatimiz tomonida, pedagoglar tomonidan ko'p intilishlar, harakatlar bo'lmoqda. Ekologik madaniyat va ma'naviytni oshirishda xalqaro "Ekosan" tashkiloti, keyingi vaqtlarda yangi tashkilot qilingan "Ekologik harakatlar" nodavlat tashkilotlari imkoniyati darajasida ekologik tarbiyani aholi o'rtasida rivojlantirish maqsadida katta harakatga bel bog'laganlar. Jumladan "Ekosan" tashkiloti tomonidan Yoxanesburg konsepsiyasidan kelib chiqqan

holatda O‘zbekiston Respublikasi ma’naviyat va sport ishlari vazirligi respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi ekologik muommolar yechimini topishda ma’naviyat ma’rifat va ma’naviyatning ahamiyatiga Markaziy Osiyo xalqlarining tabiatiga bo‘lgan munosabatlarining tarixiy negizi bo‘y tarixiy qadryatlarimiz asosida ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida ekologiyada “ma’naviyat, madaniyat, tarix va zamonaviylik” xalqaro ilmiy konferensiyasini o‘tkazdi. Konferensiyada eng dolzarb muommolrga bag‘ishlangan “ekologiya, ma’naviyat va madaniyat” milliy “qadryatlar va ekologiya”, “ekologiya va ma’naviy omillar”, “ekologiya va madaniy an’analar to‘g‘risida ayrim mulohazalar”, “islom, ma’naviyat va ekologiya”, “ekogigiena va din”, “amaliy sanat va ekologiya”, “ekomadaniy qadryatlar” va boshqa qator maruzalar konferensiyaning asosiy maruzalari bo‘lib qoldi. Konferensiyaning asosiy maqsadi, aholining hamma qatlamlari ekologik madaniyati, ma’naviyat va tafakurini yanada shakllantirish va samaradorligini oshirishdir. Mashxur ma’rifatchi mutafakkir olimlar, jumladan: Imom Al Buxoriy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Layz Samarqandiy, Nosir Xusrav, Sadiy Sheroziy tasavvuf namoyondalari – Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G‘ijdivoniy, Baxovuddin Naqshband, Ahmad Donish va boshqalar insoniyatga ma’rifat tarqatishda katta jonbozlik ko‘rsatganlar.

Ekologik madaniyat tushunchasi ekologik madaniyat, tarbiya, ekologik tafakkur, ekologik odob ahloq jamiyat tarqqiyotining asosiy negizlaridan hisoblanadi. Ekologik ong insoniyatning ijtimoiy – tarixiy amaliyoti jarayonlarida atrof-muxitni muxofaza qilishga qaratilgan ongli munosabat, ekologik ong tabiiy muxitni har qanday buzilish holatidan asrab qolish imkonini beradigan insonga mansub jarayondir, aks holda uning teskarisini ko‘rish mumkin. O‘ziga xos ekologik ongni kishilarning muayyan amaliy va nazariy faoliyatini, maqsadini, tabiatini muxofaza qilish manfaatlari bilan bog‘lashning o‘zi ekologik madaniyatdan habar beradi. **“ekologik madaniyat”** atamasining mazmuni shuki tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan, hamda inson faoliyati tasvirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olgan xolda foydalanishdir. Ekologik madaniyat umuman insoniy madaniyatning moddiy va

ma'naviy muxit maxsuli sifatida aks etgan tarkibiy qismidir. Ekologik madaniyat taraqqiyoti kasbiy Ekologik ta'lim va tarbiya hamda xaqqoniy Ekologik ma'lumotlarni ommaga yetkazish bilan chambarchas bog'langan. Ekologik madaniyat zaminida Ekologik ta'lim yotadi. Ekologik ta'lim- tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini ilmiy asosda amalga oshirish zarur bo'lgan matematik bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasidir.

Ekologik tarbiya- ekologik madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, insonning xisssiyotlari, ongi, dunyoqarashi va tasavvurlariga ta'sir kilish orqali unda tabiatga nisbatan ongli va ma'naviy munosabat saviyasini muntazam va maqsadli ravishda oshirib borish jarayonidir. [6]

“Madaniyat” atamasiga o'zbek tilining izoxli lug'atida shunday ta'rif berilgan:

1. Jamiyatning yoki aloxida kishining ishlab chiqarish ijtimoiy va ma'naviy xayotida qo'lga kiritgan yutuqlari yig'indisi;
2. Xalqlarning ma'lum bir davrda qo'lga kiritgan ijobiy yutuqlari darajasi;
3. Biror xo'jalik yoki aqliy mexnat soxasining rivojlanganlik darajasi (masalan, dexqonchilik madaniyati, nutq madaniyati, musiqa madaniyati, muomala madaniyati va xokazolar);
4. O'qimishlilik, ta'lim tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik, odoblilik;
5. Turmushning ma'rifatli kishi extiyojlariga kerak bo'lgan sharoitlar yigindisi;
6. Madaniyatli odam deganda, madaniyat, maorif va ma'rifatga erishgan, madaniyatni egallagan odam tushuniladi.

“Madaniyat” atamasi “ falsafiy lug'atda” quyidagicha ta'riflangan: u lotincha “kultura” degan so'zdan kelib chiqqan, parvarish qilish, ishlov berish degan ma'nolarga ega. Insoniyat yaratgan va yaratayotgan jamiyat taraqqiyotida erishilgan ijobiy bosqichini ifodalaydigan madaniy va ma'rifiy qimmatdorlik yigindisi majmui.

Ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat bu falsafa fanining xech kachon diqqat e'tibordan chetda qolmagan asosiy muammosi bo'lib, komil inson dunyoqarashini shakllanishini, uning erkin bo'lishi, ozod va xur yashashi, uning ma'naviy yetuk, axloqiy tomondan kamol topishi, fozil va fidoiy inson bo'lib yetishishidadir.

Bunday insonlar ekologik muammolarni xal etishda o'ta ma'suliyatlidir. Ular axloqiy barkamolligi bilan o'zgalarning ekologiya soxasidagi bilimlarni o'rganib, ekologik noqulay holatni tushunib yetib, odamlar sogligini saqlab qolishga, tabiatni asrashga, amaliy chora-tadbir ishlab chiqaruvchi, xavfni bartaraf etishga qaratilgan vazifalarni bajaruvchi insonlardir.

Ma'lumki, insonning barkamolligi, madaniyati tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki uning ma'naviy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi shu jamiyatda yashovchilarning ham ma'naviy, ham madaniy barkamolligiga bogliq. Inson ma'naviy tomondan qashshoq bo'lsa, kelajagi porloq jamiyat kurib bo'lmasligi xayot xaqiqatidir. Ilmiy adabiyotlarda keyingi vaqtlarda ekologiya madaniyatini shakllantirish borasida anchagina maqolalar chop yetilmoqda. Demak, shunday ma'ruzalarga, maqolalarga tashnalik ortib bormoqda. Bu mavzuning borgan sari aktuallashib borayotgani va bu muammolarni bartaraf etib, barqaror rivojlanishni ta'minlashni taqazo etishni ko'pchilik hamyurtlarimiz tushunib borayotgani quvonchlidir. Mustaqil O'zbekistonimizning xar bir fuqorosi o'zining vatanini, xalqini sevib, ekologik ongini, madaniyatini oshirib borishi va muammolarni xal qilishda faol qatnashishi lozim. Bu masalada tomoshabinlarga o'rin yo'q bo'lishi kerak. Bu ko'p qirrali, hammaning e'tiborini jalb qiladigan muammo bo'lib, bu borada ta'lim-tarbiyani va uning samaradorligini oshirish hamjixatlikni ta'minlash davr talabi bo'lib qoldi.

Ekologik jarayon murakkab ketayotgani uchun u yangicha fikrlashni, dunyoqarashni, axloqiy, madaniy, ma'naviy yetuklikni talab qiladi, shuning uchun ham, xar bir shaxsni bilimli qilishda, ekologik madaniyatini shakllantirishda pedagoglar oldiga eng murakkab vazifalar ko'ndalang qilib qo'yildi. Inson o'zining tabiat bilan chambarchas bog'langanligini, hamda u tabiatning bir qismi ekanini tushunib yetishi, tabiiy muxitda qanday o'zgarishlar bo'lmasin, insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri qaytib kelib o'ziga salbiy ta'sir etishini bilishi kerak. U ayniqsa, insonning antropogen faoliyatining salbiy ta'siri oqibatida insonga xavf tug'dirishi tabiiy bo'layotgan ofatlar oqibatida insonning o'zi jabrlanishini bila olishi, bularning hammasini ekologik qonunbuzarlik natijasi ekanligini

tushunib yetishi va bajarilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqarishda faol qatnashishi lozim. Har bir insonning ekologik tarbiyasi, bu umumiy ta'lim-tarbiyaning bir qismidir, ya'ni shaxsda ijodiy ma'naviy ruxiy va ularga hamohang bo'lib, jamiyatning rivojlanishidir, ammo bu tarbiyada shaxsning oldida aniq va maqsadli vazifalar qo'yiladi.

Masalan, tabiatga mehrlil, oqibatli bo'lish, ona Vatan tabiatini sevish, tabiat resurslaridan tejimli foydalanish va tabiiy atrof-muxitni bulg'atmaslik ma'suliyati tabiiy resurslarni boyitishga xarakat qilish, uni asrash yo'l-yo'riqlarini o'rganish va xokazolar. Axolining hamma qatlamlariga uzluksiz ta'lim va tarbiya berish, bu ta'lim-tarbiya doimo maqsadli bo'lib shaxsning atrof-muxitni asrash tuyg'usini shakllantirish asosiy ro'l o'ynaydi. Bu jarayonda o'qitish, ta'lim berish jarayoni tarbiyaning yeng muxim qismi xisoblanadi. Bu o'z navbatida kelajakda ekologiya soxasidagi bilim, fan, texnika rivojini ta'minlaydi. Xatto, ekologiya soxasidagi ta'lim tarbiya fanlarning boshqa soxalariga ham, ya'ni adabiyot, san'at, informatika, nashr ishlariga, radio va televizion axborotlarga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Ekologik ta'lim tarbiya masalalarini xal etishda umumiy va ayrim vazifalarni xal etishga to'g'ri keladi. [7]

Yuqorida zikr qilingan ayrim aloxida vazifalardan ekologik ta'lim - tarbiyaning umumiy vazifalari kelib chiqadi. Jumladan, respublika fuqorolarining xar bir shaxsida yuqori javobgarlik ma'suliyatini sezishni, tabiiy boyliklarni yanada ko'paytirishni, tabiiy resurslardan oqilona tejimkorlik bilan foydalanish asosiy masala qilib qo'yishni, xayot jarayonida va ishlab chiqarishda paydo bo'ladigan zararli chiqindilarini utilizatsiya qilish, zararsiz holatga keltirish muammolarini ham ma'lum darajada xal etish va bajarish bosqichlarini o'rgatish, tarbiyalash, ta'lim berishni dasturlar yordamida o'tkazishni taqozo qiladi.

Ekologik ta'lim-tarbiyani eng asosiy vazifalaridan biri ekologiya fani soxasidagi bilimlarni tarqatishda ma'rifat ishlarini rivojlantirish xisoblanadi. Bunda eng dolzarb mavzu atrof-muxitni, tabiatni asrash, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni tirik tabiiy muxit omillari bilan jonsiz tabiiy muxit omillari o'rtasidagi bir butun yaxlitlikni tushunishni va xar bir shaxsni shu

jarayonlar bilan bog'liqligi tushunchasini shakllantirish vazifasi yotadi. Ekologik ta'lim-tarbiya soxasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida Ekologik ta'lim mazmunini tanlash va uni o'qitish metodikasini ishlab chiqish;

2. Talabalarni umumbashariy va umumintaqaviy ekologik muammolar, holatlar bilan tanishtirish va amaliy faoliyatini takomillashtirish;

3. O'quv dasturlari va darsliklar mazmunini davlat ta'lim standartlari asosida muvofiqlashtirish, ortiqcha vaqt talab etmasdan ekologik mazmundagi bilimlar bilan boyitish;

4. O'tmishdagi ajdodlarning tabiat va uning boyliklaridan foydalanish borasida qoldirilgan milliy an'analaridan samarali foydalanish;

5. Umuminsoniy ekologik qadriyatlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;

6. Sinf va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologiyaga oid ishlarni yo'lga qo'yish;

7. Atrof-muxitda sodir bo'ladigan xavfli xodisalar ularning turg'unligi tabiat komponentlarining o'zaro bog'liqligi haqida to'liq bilimlarni talabalarda shakllantirish uchun fanlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish, ekologiyadan integratsiyalashtirilgan dastur va darsliklar yaratish;

8. Uzluksiz ekologik ta'lim tizimini yo'lga qo'yishni ijobiy hal qilish.

O'qituvchi uchun ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalari shulardan iborat bo'lib, har bir talaba dars mavzusini ekologik maqsadi, mazmuni, vazifalari va istiqbollari ko'ra bilishi, mavzuning ekologik maqsadi, ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy manfaatlarga mos kelishi va u bilan bog'langanligini aniq tasavvur qilish zarur. O'qituvchi darsdan, sinfdan, maktabdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan ekologiyaga oid mashg'ulotlarning mazmuni, hajmi, tashkiliy shakllarini ishlab chiqarish va uning samaradorligini ko'z oldiga keltira bilishi kerak. Buning uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni to'la to'kis yo'lga qo'yish hamda o'qitish soatlarini darslaning hajmiga

moslashtirib alohida ajratish zarur bo‘ladi. Bu takliflar hozirda va kelajakda ekologiya sohasida tayorlanadigan kadrlar uchun o‘ta zarurdir. Chunki ekologik ta’lim-tarbiya olishning fundamenti maktabdandir. Qaerda bo‘lmasin ta’lim va tarbiya jarayonlari bir-birlari bilan bog‘langan holda olib borilishi kerak. [8]

Shular bilan bir qatorda talabalarning qaysi guruhi, kategoriyasi bo‘lmasin,

- a) Ularning axloqini, estetik tomondan ham ekologik dunyoqarashini shakllantirish vazifasi turadi.
- b) Insonni tabiiy muxitda ketayotgan jarayonlarga aralashuvini meyorlashtirish va ularni tushunishi, iloji boricha bu jarayonlarga aralashishini chegaralash vazifasi hozir bo‘lishi kerak. Aks holda kech qolinadi va ekologik havf ortib ketadi, odamlarga salbiy zarari kuchayadi.
- c) Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hamjixatlikni rivojlantirish va tabiiy holatga zarar bermaslik.
- d) Turar joylarni ko‘kalamzorlashtirish qo‘riqxonlarni kopaytirish, biolgik xilma-xilliklarni asrash.
- e) Nodavlat tashkilotlarning ma’naviyat va ma’rifat borasida olib borayotgan ishlarini yanada rivojlantirish.
- f) Ekologik harakatlar, yangi tashkil topgan tashkilot ishlarini ommalashtirish, aktivlashtirish, fuqarolarning hamma qatlamlaridan ko‘proq vakillarini bu harakatga jalp etish, bu uchta demakratik prinsiplar asosida ishlarni tashkil qilib, ish samaradorligini oshirish zaruriyati tug‘iladi.

Asosiy maqsad – vatanimiz tabiiy muxitini asrash, uning boyliklarini ko‘paytirish va har bir shaxsni tabiat bilan hamkorlikda rivojlantirishni ta’minlash.

Shu bugungi kunda ekologik xavfsizlikka taxdid globallashib borayotgan bir davrda har qanday jamiyatda ham insonni ekologik jixatdan tarbiyalash, ekologik madaniyatini oshirish maqsadida tarbiyalash, umumiy ta’lim-tarbiyaning ma’suliyatini oshirish va yanada mukammlashtirishiga yordam beradi. Talabalar ongiga tabiat bu men va sen biz bilan yashaydigan makon tabiat butun yer kurrasi mavjudotlarning yashaydigan yagona zamin degan asosiy nazariy va amaliy

bilimlarini singdirish lozimdir, zero hayot kishilardan atrof-muxitni nafaqat bugungi kun uchun balki kelajak avlod uchun ham asrashni talab qilmoqda.

Hozirgi davr xalqimiz dunyoqarashini milliy istiqbol ruhida isloh qilishni qat'iy talab qilmoqda. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, “tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir”. Shunday ekan, ekologik milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish tabiat va jamiyatning sog‘lom muxitni saqlash bilan barobar ekanini anglashimiz darkor. [9]

3-Bob. Kasb-hunar kollejlarda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik tadbirlar o‘tkazishning ahamiyati.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning negizida jismonan baquvvat, axloqan yetuk, ruhan sog‘lom, o‘z navbatida, ekologik ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan munosabatda ham ongli avlod tarbiyasi yotadi. Chunki ekologik muammolar keskinlashgan hozirgi davrda ma’naviy va jismoniy jihatdan mukammal insonni tarbiyalash uchun, ma’naviy va tabiiy muhit sog‘lom bo‘lishi kerak. Sog‘lom muhitni yaratish uchun ekologik bilim, malaka zarur.

Ekologik ta’limning bosh maqsadi - aholining barcha qatlamlarida, jumladan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hamda talaba-yoshlardan boshlab atrof-muhitga, uni asrash muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limda ekologiya tabaqalashgan tarzda amalga oshiriladi. Akademik litseylarning noekologik ta’lim muassasalarida, oliy ta’lim talablaridan kelib chiqqan tarzda, “Umumiy ekologiya” o‘quv kursi sifatida o‘tilgani maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Bunda umum ekologik ta’lim talablari bilan bir qatorda, atrof tabiatni muhofaza qilishning kundalik qoidalari va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanishning ekologik xususiyatlari ochib beriladi.

Kasb-hunar kollejlarning yo‘nalishlariga mos ravishda “Kasbiy ekologiya” o‘tilishi mantiqan to‘g‘ridir. Masalan, pedagogika kollejlarda - “Ekologiyani o‘qitish metodikasi”, iqtisodiyotda - “Iqtisodiy ekologiya”, turizm va servisdan - “Ekoturizm asoslari” yoki “Ekoturistik xizmatlar”ni o‘tish yaxshi samara berishi

mumkin. Bu bilan bitiruvchilarning amaliy ekologik bilim va ko'nikmalarini shakllantiriladi va ularni kelgusi ish jarayonida tabiiy atrof-muhitni asrab kelgusi avlodlarga yetkazishga undaydi. Ayniqsa majburiy ta'lim tizimidagi barcha yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu ishlarni amalda qo'llash uchun kasb-hunar kollejlari talabalari o'rtasida tabiiy fanlarni o'qitishda **“ekologik tadbir”**lar uyishtirish hamda ularni ahamiyatini yoritib berishga harakat qildik.

Qushlar kuniga bag'ishlangan tadbir senariysi.

Tadbirni ikki nafar talaba olib boradi

1-talaba:-Assalomu alaykum,hurmatli ustozlar!

2-talaba:-Assalomu alaykum, bugungi qushlar kuniga bag'ishlangan bayram tadbiriga yig'ilgan talabalar.

Shundan so'ng tadbirni ochib berish uchun so'z kollejning o'quv tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga berildi.

1-talaba:

Qanotlarin samolarda silkitgan,
Bahor nafasiga dimog'in tutgan.
Sog'ingandan chanqog'in unutgan,
Qushlar bayramiga hush kelding,do'stim.
Suxbat ayla bugun xar bir qush bilan.
So'zlarini tingla aqlu xush bilan,
Hayirlashib kelgan qora qish bilan.

2-talaba:

Turnalar samoga solar arg'imchoq,
Peshtoqdan joy olar bizning qaldirg'och.
Bulbullar sho'h sayrar dimog'lari chog',

Qushlar bayramiga hush kelding do'stim.

Boyqush ham salom deb boshini egadi,

Popishak boshiga tojin kiyadi.

Oqqush ham kelinchakdek ho'p yasanadi,

Qushlar bayramiga hush kelding do'stim.

1-talaba: Qushlar sinfi kaltakesak dumlilar va yelpig'ich dumlilar kenja sinflariga bo'linadi. Kaltakesak dumlilar qirilib ketgan, ular yura davrida keng tarqalgan.

2-talaba: Hozirgi yashab turgan qushlarning barchasi yelpig'ich dumlilar kenja sinfiga kiradi. Bu kenja sinfga 8500-9000 ga yaqin tur kiradi. Ular *pingvinlar*, *ko'krak tojsizlar* va *ko'krak tojlilar* katta turkumlariga bo'linadi. O'rta Osiyoda 450 ta turi va O'zbekistonda 441 taturi uchraydi. Quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlar orasida qushlar sinfi turlarining ko'pligi jihatdan birinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda qushlar sinfining 432 ta turi uchraydi.

1-talaba: Qushlarning havo muhitini egallab faol uchishi, issiqqonlilik, markaziy nerv sistemasining yuksak darajada rivojlanganligi ularning yer yuzida keng tarqalishi uchun juda katta imkoniyat bergan. Qushlar ingichka daraxt shoxlaridan, borib bo'lmaydigan qoyalardan, bag'ri keng okeanlar ustidan uchib o'tib o'z ozuqasini topadi. Ular oziq qidirib uzoq hududlarga uchib boradi. Shuning uchun qushlarning oziqlanadigan, urchish va dam oladigan joylari bir-biriga bog'liq bo'lishi shart emas.

2-talaba: Uchish qushlar ekologiyasida katta ahamiyatga ega. Faqat pingvinlar va ko'kraktojsizlar katta turkumlarning vakillarigina haqiqiy uchish layoqatini yo'qotgan. Ukki, to'ti, suvmoshaklarning ayrim turlari. qanotsiz gagarka, dront va pustirnik degan kaptar turlari ham ucholmavdi.

1-talaba: Bilsangiz, qushlar sanitarimiz xisoblanadi, chunki o'laksaho'r qushlar o'lik qoldiqlarni yeb atmosfera havosini ifloslanishdan asraydi.

2-talaba: Qizilishton bolalariga bir kecha-kunduzda 300 marta ovqat keltiradi, bir juft chittak 30-40 darxtni zararkurandalardan saqlab qoladi. Bitta qaldirg'och yoz mavsumida bir millionga yaqin xashoratni yeydi. Bir juft mayna esa bir yilda 150 ming chigirtkani yo'q qiladi.

1-talaba:

Olim Zeverovning xisoblab chiqishicha, ikkita miqqiy qush bir yilda bolalariga to'qqizta yumron qoziq, beshta cho'l sichqoni, ikkita dala sichqoni va bitta sichqon bolasini keltirar ekan.

2-talaba:

Endi yurtimizga uzoq o'lkalardan uchib kelgan, "qizil kitobga" kiritilgan voxa va vodiylarimizdagi o'troq, uchib ketuvchi va uchib o'tuvchi qushlar bugungi bayramimizga tashrif buyurishgan. Navbatni ularga beramiz.

Talaba:

Assalom dunyoni bezagan qushlar,
Bugun bayram, sizni barcha olqishlar.
Nomingizni ayting taniylik sizni,
Davramizga qo'shilib shod eting bizni.
(*saxnaga qushlar chiqadi*)

Qaldirg'och:

Qaldirg'ochman bahordan darak berib turaman,
Loy va has cho'pni tashib shiftga uya qoraman.
Ayvonidan joy berdi, xatto menga odamzod,
Tong saxar chug'rlashib qilaman ko'nglini shod.
Afrika, Xindistonda qishlab keldim, charchadim,
Bugun bayram ekan-ku joy bering lar, do'stlarim.

Qizilishton:

Uzun tumshuq menda bor, kavakda in quraman,
Daraxt tanasin qurtlardan qutqaraman.
Panjam o'tkir, dumim qattiq, yerga tushmayman bir on,
Dorbozchiga o'hshayman, nomimdir qizilishton.
Taq-taq ovozimni taniydijumlai jaxon,
Safingizdan joy olishga shoshib keldim siz tamon.

Sassiippo'pshak:

Uzun tumshuq va zar kokil menda bor,
Xashoratho'r qushman mening foydam bor.
Uyam oddiy yerga tuhum qo'yaman,
Bolalarim doimo och, ularni to'ydiraman.
Sassiippo'pshak derlar meni tojimdan tanib,
Do'stlar, meni safingizga qo'shing deyman yolvorib,

Hamma:

Keling-keling davramizning to'riga,
Boshingizga toj kiyib o'tavering so'riga.

Boyo'g'li:

Men boyqushman, patlarim chipor va sarg'ish,
Boshimni egib mudom qilarman honish.
Kuzataman dunyonini tepada turib,
O'z ozig'im poylayman tunda ov qilib.
Foydali qushman men ham safingizda turay-chi
O'troq qushman yumushim xuv o'sh kemiruvchi.

Hamma:

Og'ir bosiq boyo'g'li, marhamat kelgin,
Bizlarni ham o'zinga do'st deya bilgin.

Jiblajibon:

Turimiz ko'p ahillikda bizdan o'tmas biror jon,
Jajji qushmiz rang-barang, nomimiz jibljibon.
Zah joyga uya qurib olti bola ochamiz
Xashoratlarni qirib bolamizni boqamiz.
Yugurdakmiz juda chaqqon dumimizdan tanishar,
Bizni ko'rib do'stlarimiz saflariga olishar.

Hamma:

Kelgin marhamat, jajji qush jibljibon,
Davramizga qo'shilgin, bo'lg'in sog' omon.

Vaxmaqush:

Og'irligim 10 gramm, juda mitti qushchaman,
Darahtning shohlariga namatdan in quraman.
Vaxmchi demang aslo nomim mening vaxmqush,
O'zgartirib rangimni ishim doim ov qilish.
Qishlash joyim bilsang Eron, Xindiston,
Bag'ringdaman men bugun, xur vatan O'zbekiston.

Hamma:

Sizni do'st deb bilamiz vaxmqush o'zimizga,
Olinroqdan joy olib ko'rining ko'zimizga.

Turna:

Men turnaman samolarda uchaman,
Uchib o'tuvchi qushman, extiyotkor bo'laman.
Ozig'm yashil poya, don, baqa va malyuska,
Hushovoz tovush bilan uchaman men olisga.
Birpasgina davrangizga keldik biz,
Umr bo'yi sho'h vashodon bo'ling siz.

Hamma:

Davramizga hush kelding, go'zal turnaoy,
Raqsga tushib berarsan xoynaxoy.

Oqqush:

Noyob qushlar safidan joy olgan oqqushdirman,
Chiroyli qanotim bor Hammadan soz qushdirman.
Maskanim ochiq ko'llar va Orol dengizi,
Boshimni egib goho dam olaman kundizi.
Patlarim Hammadan ko'p qush o'zimman bilsangiz,
Men ham sizga do'stirman qatordan joy bersangiz.
Hamma:hush kelibsan, oqqushjon,
Bo'l bugun bizga mexmon.

Tuyaqush:

Tuyaqushman baland bo'yli, Hammangizdan yirikman,
Naqd bir yarim kilogram tuhum qo'yib turibman.
Patlarim momiqqina, aybim-qanotim kuchsiz,
Uchish menga shart emas, yuguraman juda tez.
Qushlar bayramiga keldim uzoq o'lkamdan,
Joy bo'lmasa mayliga qo'nim toping yelkamdan.

Hamma:

Keloqol, tuyaqushim sig'asn safimizga,
Do'stlarga ochiq eshik, quloq sol gapimizga.

Hamma qushlar:

Tabiatning ko'rkimiz barchamiz ahil-inoq
Foydamiz tegar sizga biz bilan bo'ling o'rtoq
Rahmat sizga, odamlar, bayram bilan kutdingiz,
Barcha qushlarni yig'ib ko'nglimiz shod etdingiz.

Xayr endi do'stlarim, in qurishga shoshaylik,
Yurtni obod qilishga hissamizni qo'shaylik.

Izoh: O'zbekiston Respublikasining 2006-yilda chop etilgan «Qizil kitob»ga qushlarning quyidagi 48 turi (kenja turlari bilan birga 51 ta turi) kiritilgan: pushti saqoqush, jingalak saqoqush, kichik qoravoy (qorabuzov), kichik oqqo'ton, sariq qo'ton, Turkiston oq laylagi, qora laylak, qoshiqburun, qoravoy, qizilg'oz (flamingo), vishildoq oqqush, qiyqirdoq oqqush, oq peshanali kichik g'oz, qiziltomoq g'oz, marmar churрак, olaqanot, oqbosh o'rdak, suvqiyg'ir, uzun dumli suv burgut, oq dumli suv burgut, boltayutar, qumoy, oq boshli qumoy, tasqara, ilonburgut, cho'l bo'ktargisi, cho'l burguti (qoraqush, g'ajir), katta olachipor burgut, qironqora burgut, qirg'iy burgut, kichik burgut, kuyka (cho'l miqqiysi), itolg'i, lochin, mallabosh lochin, Zarafshon qirg'ovuli, oq turna, to'xta tuvaloq, bizg'aldoq, yo'rg'a tuvaloq, cho'l jiqtog'i, targ'oq, kichik uzunburun, Osiyo moki loyxo'rangi, qorabosh baliqchi, oqbovur, qora kaptar.

1-va 2-talaba baralla: E'tiboringiz uchun rahmat!



Qushlar kuniga bag'ishlangan bayram tadbirlarini o'tkazish talabalarga estetik zavq bag'ishlaydi, qushlarni asrab avaylash, ularga ozor bermaslik, mehr va

oqibatli bo'lish kabi tuyg'ularni uygo'tadi. Talabalar qushlar haqida ko'pgina bilimlarga ega bo'lib, nafaqat tinglovchi, balki bayram ishtirokchisiga aylanishiga harakat qilishadi. Bunday tadbirlar har bir bolaning individual yondashuvini takomillashtiradi va uni tarbiyalaydi. [10]

Qo'riqhonalar va milliy bog'lar kuniga bag'shlangan ekologik tadbir senariysi

Ushbu ekologik tadbirni agrosanoat kasb-hunar kolejining 1-kurs talabalari bilan hamkorlikda tayyorlandi

Tadbirni ikki nafar talaba olib boradi.

1-talaba: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar.

2-talaba: Assalomu alaykum, bugungi qo'riqhonalar va milliy bog'lar tadbirining talabalari.

Shundan so'ng tadbirni ochib berish uchun so'z kollejning o'quv- tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga beriladi.

Kollejning o'quv- tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ushbu tadbir ishtirokchilarini bugungi bo'lib o'tadigan ekologik tadbir bilan samiyiy qutladi va ushbu tadbir mohiyati nimada ekanini talabalarga tushuntirib berdi.

Shundan so'ng tadbirni olib boruvchi talabalar davraga chiqishdi.

1-talaba: Bilsangiz yurtimizda hozirga kelib, 9 ta qo'riqhona faoliyat yuritmoqda.

2-talaba: Bundan tashqari 2 ta milliy bog' va 9 ta buyurtmahonlar ham mavjud tabiiy resurslarni saqlash hamda ko'paytirishga xizmat qilmoqdalar.

1-talaba: Qo'riqhonalar –bu tabiat etaloni bo'lib, tabiatni muhofaza qilishning eng samarali yo'llaridan hisoblanadi. Qo'riqhonlar quruqlik yoki suv havzasining bir qismi hisoblanadi.

2-talaba: Qo'riqhonalarining asosiy vazifasi –tabiatning diqqatga sazovor,qimmatli joylarini jamiyat mafaatlari uchun saqlashdan iborat. Qo'riqhonadan ho'jalikda foydalanish, hatto pichan tayyorlash, ov qilish, baliq tutish, zamburug'lar terish, mevalar yig'ish, suv havzalaridan foydalanish kabilar mutlaqo taqiqlanadi.

1-talaba: Hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasida Respublikamizda yagona "Jayron" ekomarkazi tashkil etilgan bo'lib, unda jayronlarni sun'iy ravishda ko'paytirish hamda tabiiy tarqalish joylarida ko'paytirirish ishlari olib boriladi. Ekomarkaz faoliyati natijasida bugungi kunda jayronlarning soni 1000 boshdan ortib ketdi. Bundan tashqari ekomarkazda halqaro dastur asosida qoplon va tuvaloqlarning hayoti ham o'rganilmoqda.

2-talaba: Tabiatning maxsus go'shalarini himoya qilish ma'lum tartib o'rnatishni talab qiladi. Bunday noyob go'shlarga qo'riqhonalar, buyurtmahonalar, milliy bog'lar, rezervatlar, tabiat yodgorliklari kiradi. Tabiat go'shlari asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tashkil qilina boshlandi. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha ana shunday hududlar soni 3000 dan ortiq. Ularning umumiy maydoni quruqlikning 3% dan ortiq qismini tashkil etadi. Tabiat yodgorliklari soni esa 2500 dan ortiq.

O'zbekistonda 500 ga yaqin tabiat yodgorlikari mavjud.

Qo'riqhonalar va milliy bog'larga tashrif:

Tadbir talabalariga navbat:

1-talaba: Bizning Hisor davlat qo'riqhonamiz O'zbekiston Vazirlar Kengashining 09.09.1983 yildagi 521-sonli qaroriga muofiq Qizilsuv va Miroqi davlat qo'riqhonalari qo'shilish natijasida tashkil etilgan. Hisor davlat qo'riqhonasi O'zbekistondagi eng yirik qo'riqhona bo'lib, 80986 gektar maydonni egallaydi. Qo'riqhonaning hayvonot olami boy, turli-tuman va tog'li o'rmonlarga xos bo'lgan deyarli barcha turlarni qamrab oladi.



2-talaba: Hush kelibsiz bizning Zomin tog'-archazor davlat qo'riqonomizga. Bizning qo'riqhona 1960-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda hududi 26840 gektarni tashkil etadi. Dengiz sathidan 1760-3500m balandlikdagi tog'-archa ekotizimlari

muhofaza qilinadi. 700 dan ortiq turdagi o'simlik mavjud, shundan Zarafshon yarimsharsimon va Turkiston archalari o'rmon hosil qiladi.



3-talaba: Bizning Nurota davlat qo'riqhona 1975-yilda tashkil qilingan. Maydoni 17752 gektar bo'lgan qo'riqhonaning maqsadi yong'oqning kamyob turlarini saqlab qolish va Severtsov qo'yining noyob populyatsiyasini himoylashdan iborat. Asosiy muhofaza obyektlari endemiklar,

relikt va noyob o'simliklar hamda o'simlik hamjamiyatlari hisoblanadi.

4-talaba: Zarafshon davlat qo'riqonasiga hush kelibsiz. Bizning qo'riqhona 1975-yilda tashkil etilgan. Qo'riqhona maydoni 2352 gektar. Ushbu qo'riqhonani tashkil etishdan maqsad yo'qolib borayotgan chiroyli Zarafshon qirgo'vulini, qimmatli dorivor butasi-chakanda (облепиха), to'qay changalzorini tiklash va saqlash, ilmiy tadqiqotlar olib borishdan iborat.

5-talaba: Kitob davlat geologik qo'riqhonasi 1979-yilda 3938 gektar maydonda tashkil topgan. Maqsadlariga tabiatning nodir yodgorliklari, geologostratigrafiya, paleantologiya, sedimentologiya va boshqa intizomlarning fundamental asosini qayta ishlash uchun zarur ilmiy-tadqiqot poligonini qo'riqlash, shuningdek Xalqaro devon maktabi, Xo'jaqo'rg'on va Zinzilban soylari hududida ilmiy tadqiqotlar bazasini shakllantirish kiradi.

6-talaba: Ugom-chotqol davlat-tabiat milliy bog'iga hush kelibsiz. Bizning milliy bo'g' 1990-yilda Toshkent viloyatida G'arbiy Tyan-Shanning tog'li tarmoqlarida 574 ming gektar maydonda tashkil etilgan. Bog' tabiatini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan. Bog' hududida yangdan-yangi yirik zonalar joylashgan bo'lib, ular yil mobaynida mashhurdir. Yillardan ayniqsa, o'zining tabiiy belgilari bilan boshqalardan ajralib turuvchi Beldersoy va Chimyon tog'laridir. Shuningdek ekvator perimetri bo'lgan Chorvoq suv omboridir.



7-talaba: Quyi-Amudaryo davlat rezervarti (Baday-to'qay) ushbu rezervart 2011-yilning 26-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 243-sonli Qarori bilan 68717,8 gektar maydonda, tabiiy to'qayzorlar va uning hayvonot dunyosini saqlab qolish maqsadida tashkil etildi. Quyi-Amudaryo davlat biosfera rezervarti TMQXI Qizil Kitobi, O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi, SITES II ilovasiga kiritilgan Buxoro bug'usini (xonguli) iqlimlashtirish bilan shug'ullanadi.

8-talaba: Men hozir sizlarga Qizilqum davlat qo'riqhonasi haqida so'zlab beraman. Ushbu qo'riqhonamiz 1971-yilda tashkil topgan. Maydoni 10311 gektarni tashkil etadi. Qo'riqhona to'qayli-qumloq ekotizimlarining

bioxilmaxilligi, to'qayli o'rmonlarning aborigeni sanalgan Buxoro bug'ularini saqlash maqsadida tashkil qilingan.

9-talaba: Respublikamizdagi yana bir milliy bog' hammamizga ma'lum va mashhur bo'lgan Zomin Milliy tabiat bog'idir. Ushbu hududning o'ziga hos tabiati, shifobaxsh toza havosi bilan ko'plab insonlarni o'ziga jalb etadi. Zomin milliy tabiat bog'i 1976-yilda tashkil qilingan bo'lib, uning umumiy maydoni 24110 gektar bundan 16828 gektari o'rmonlar bilan qoplangan. Turkiston tog' tizmalari bilan tutashgan. Bog'ning hayvonot olami rang-barang va boy, by yerda O'zbekiston o'rmonlari uchun xarakterli bo'lgan archalarning barcha turi o'sadi.



10-talaba: Chotqol davlat biosfera qo'riqhonasi-bu qo'riqhona 1974-yildatashkil topgan. Umumiy maydoni 35724 gektarni egallaydi. Qo'riqhonaning maqsadi asosan G'arbiy Tyanshanning tog'li ekotizimlarini saqlash va atrof-muhit

holatini ekologik monitoringidan iborat.

11-talaba: Surxon davlat qo'riqhonasi-ushbu qo'riqhona 1971-yilda, maydoni 3092 gektardan tashkil topgan. 1987-yilda Qo'hiton davlat qo'riqhonasi Orol-Payg'ambar qo'riqhonasi bilan birlashtirildi va umumiy maydoni 24554 gektar bo'lgan Surxon davlat qo'riqhonasiga qayta tashkil qilindi. Qo'riqhonaning muhofaza etish zonasida tarixiy-madaniy yodgorliklar mavjud, janubda Boysuntog'ning Teshiktosh g'orida hammaga ma'lum neandertal bolaning to'liqsiz

skeleti topilgan. Surxon qo'riqhonasi hududi hayvonot va o'simliklar dunyosiga boyligi bilan ajralib turadi.

Qo'riqhonalarga va milliy bog'larga tashrif dasturi o'z nihoyasiga yetgandan so'ng

1- talaba: Tabiatning chiroyiga chiroy, boyligiga boylik qo'shish uchun o'simlik va hayvonot dunyosini ko'paytirish noyob tabiat go'shalari vayodgorliklarini saqlash, sayyoramiz zarar ko'rayotgan joylarni tiklash va boshqa tabiatni muhofaza qilish ishlarida har bir talaba faol ishtirok etishi kerak.

2-talaba: Tabiat va uning boyliklari, yodgorliklarini muhofaza qilishda talabalar o'zlarining ekologik bilim va ko'nikmalarini oshirib borishlari, buning uchun atrof-muhitni muhofaza qilishga faol qatnashishlari, tabiatni kuzatib borishlari zarur.

1 va 2-talaba baralla : E'tiboringiz uchun rahmat!

Talabalar tabiatni muhofaza qilishga oid quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak va tadbirlarni amalga oshirishlari zarur:

1. Tabiiy-nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish.
2. Atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlangan adabiy-ilmiy ommabop ishlar, uchrashuvlar, savol-javob kechalari tashkil etish.
3. Tabiatning eng muhim tarkibiy qismlari hisoblangan suv, havo va tuproqlarni toza saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish asosiy vazifa ekanini unutmaslik.
4. Ijtimoiy fanlarni o'zlashtirish tabiat va jamiyatni o'zaro birligi haqida bilimlarni egallash, tabiat va jamiyatni bir birisiz yashay olmasligini anglab yetishi kerak.
5. Tabiatni muhofaza qilish haqidagi olgan bilimlardan amalda keng foydalanish.
6. Talabalar tabiatni muhofaza qilish tashkilotlariga yaqindan yordam berish.
7. Milliy ekologik qadryatlarimizga hurmat bilan qarash va uni boyitish. [10]

Suv-hayot manbai mavzuzusida ekologik tadbir senariysi

Aziz talaba! Siz kelajakda qanday mutaxassislikni egallashingizdan qat'iy nazar shuni bilishingiz va uqib olishingiz shart. Siz yaratgan barcha narsalar: yangi korxonalar, sanoat markazlari, shaharlar shunday joylashtirilishi va barpo qilinishi kerakki, bunday yangi qurilishlar tabiatga, atrof-muhitga zarar keltirmasin. Ular suv havzalarini, havo va tuproqni zararlamasin. Ushbu **“Suv – hayot manbai”** deb nomlangan tadbir sizga suvga nisbatan hurmat, mehr-muhabbat va uni tejash hamda undan oqilona foydalanish xususiyatlarini shakllantiradi.

O'tkaziladigan tadbirning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: talabalarga tabiatda suvning ahamiyati, suv boyliklari, suvning ifloslanishi, uni muhofaza qilish yo'llari, orol muammosi va uning hozirgi kundagi yechimi haqida tushuncha hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad: tejamkorlikka o'rgatish va ekologik tarbiya berish.

Jihozlash: dunyo tabiiy xaritasi, O'rta Osiyo tabiiy xaritasi, atlaslar, Orol dengizi to'g'risidagi rasmlar, kitoblar.

Kutilgan natijalar: talabalar tadbir so'ngida suv muammosi, uni yechishda qo'shiladigan hissalar haqida bilib olishlari kerak.

Fanlararo bog'lanish: biologiya, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, kimyo, adabiyot, tarix, fizika, ekologiya va tibbiyot.

Tadbir rejasi:

1. Boshlovchi so'zi.
2. Suv haqida she'rlar.
3. Suv haqida maqollar.
4. Hadislarda suvga hurmat qanday ifoda etilgan?
5. **Asosiy qism:** turli soha vakillarining suv haqidagi fikrlari:

- a) Adabiyotshunos
 - b) Tarixchi
 - c) Geograf
 - d) Biolog
 - e) Kimyogar
 - f) Fizik
 - g) Ekolog
 - h) Tibbiyot hodimi
6. Qo'shiq va raqs
7. Xulosa

Boshlovchi:

-Assalomu alaykum hurmatli ustozlar, aziz talabalar, "Suv-hayot manbai" – deb nomlangan tadbirimizga xush kelibsiz! Olamda eng oddiy toza suvday qimmatliroq, azizroq ne'mat bo'lmasa kerak. Suvsiz hayot yo'q va bo'lmaydi ham. Buni har bir kishi to'la tushunib yetishi va doimo esda tutishi kerak. Shunig uchun har bir inson suvni ehtiyot qilishi ham farz, ham qarz, bu esa hayotni va sog'liqni, tabiat go'zalligini himoya qilish demakdir.

Ushbu tadbirimizda siz suv haqidagi she'rlar, maqollar, hikmatli so'zlar bilan tanishasiz. Shuningdek, biz o'qiydigan umumta'lim fanlari, masalan, adabiyot, geografiya, biologiya, kimyo, fizika, ekologiya va boshqa barcha fanlarda suv mavzusi o'rganiladi. Biz turli fan sohasidagi vakillarni taklif etganmiz. Ular suv haqidagi ma'lumotlarni beradilar.

Marhamat suv haqidagi she'rlar, maqollar va hadislardan namunalar tinglang.

1-talaba:

Shahar joyida turibdi bu kun,
Ularning zavoli kelmas hayolga.
Merosiy hudbinlik borligi uchun,
Qaramay qo'yibmiz afsus Orolga.

2-talaba:

Otang ketsa agar aka bo'lasan,

Onaning o'rnini bosgay qiz singil.
Dengizing qurisa ne ham qilarsan,
Qayga bosh urarsan ey munglig' ko'ngil.

3-talaba:

Suvga qarab tuflama.
Suvga qarab supurma.

4-talaba:

Suv tabiatning bebaho in'omidir.
Hayot suv bilan bog'liq,
Suv tamom bo'lgan joyda hayot ham tugaydi.

5-talaba:

Suv zar,
Suvchi zargar.

Boshlovchi: -Hadislarda suvga hurmat qanday?

1-talaba: Kim suvni, u xoh taqsimlab bo'ladigan va xoh taqsimlab bo'lmaydigan bo'lsin, hadya va meros qilishi joiz.

2-talaba: Hadisda ehtiyojingga ortiqcha suvni man qilmangiz, aks holda o't-o'lanlarning mo'l-ko'l bo'lmog'iga mone'lik qilursiz, deb marhamat qiladilar deyilgan.

Boshlovchi: Suv ozuqamiz va kiyim-bosh, libosimiz manbai. Suv va Yer milliy boyligimiz. Hozir davraga turli fan sohalarining vakillarini taklif etamiz.
Marhamat:

- 1. Adabiyotshunos:** Marg'uba Mamatqodirova
- 2. Tarixchi:** Yulduz Mirzaqosimova
- 3. Geograf:** Jamshidbek Xomidov
- 4. Biolog:** Qutbiniso Pozilova
- 5. Fizik:** Oybek Ataboyev
- 6. Kimyogar:** Parizod Usmonova
- 7. Ekolog:** Jamshidbek Xomidov
- 8. Tibbiyot hodimi;** Gulasal Patiddinova

Eslatib o'taman davra suhbatimiz mavzusi: "Suv-hayot manbai". So'z navbatini adabiyotshunos Marg'uba Mamatqodirovaga beramiz, marhamat.

Adabiyotshunos: - Assalomu alaykum, aziz ustozlar va talabalar. Haqiqatdan ham suv ilohiy mo'jizadir. Adabiy manbalarda suv haqida rivoyat, afsona, she'r va maqollar keltirilgan.

Rivoyat qilishlaricha bir kampir og'ir kasal bo'libdi. U o'g'lini yoniga chaqirib, "Falon buloqning suvidan olib kelsang men tuzalaman"- debdi. O'g'li onasining rayini qaytara olmay, yo'lga tushibdi. Yo'l uzoq bo'lganligi sababli, yo'lda uchragan bir ko'lmak suvdan onasiga olib kelibdi. Onasi suvni ichibdiyu, tuzala boshlabdi. Mana, suv qayerniki bo'lmasin, uning shifobaxshlik xususiyatiga ega ekamligini rivoyatda ham eshitdik.

Tarixshunos: —To'g'ri aytasiz. Qadimgi dunyo odamlari suvni hayot uchun zarur bo'lgan to'rt unsur (olov, havo, tuproq va suv) dan biri deb hisoblaganlar.

Suvga bo'lgan ehtiyoj juda qadim zamonlardan oq kishilarni yerosti va yer usti suvlarini qidirib topishga majbur qilgan Cho'l va tog' oldi hududlarida hanuzgacha saqlanib kelayotgan asriy quduqlar, uzundan-uzun koriz lahmlari, sardobalar o'tmishda ota-bobolarimizning suv uchun olib borgan kurashlaridan dalolat beradi.

Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, "Kitob surat al-Arz", hozirda "Geografiya" deb tarjima qilingan asarida o'sha vaqtdagi daryolarning to'yinishida yerosti suvlarining ro'yxatini va suv miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni olish mumkin.

Geograf: —Haqiqatdan ham, yer sharining uchdan ikki qismi suvdan iborat. Ular okean, dengiz, daryo, ko'l va muzliklarni tashkil etadi. Atmosfera va yer qobig'ida ham ko'plab miqdorda suv mavjud.

Yer sharida erkin suv zahirasi 1.4 mlrd km³. Suvning asosiy hajmi okeanlarga to'g'ri kelib, 97,06 foiz suvning atmosferadagi aylanishi o'rtacha 10 sutkani tashkil etib, bu ko'rsatgich geografik kenglik bo'yicha o'zgarib boradi.

Oqadigan ko'llar suvi 10 yillarda, oqmaydigan ko'llar suvi 200-300 yilda almashinishi aniqlangan. Suvning aylanishi va almashinuvi juda muhim geografik va kimyoviy, biologik ahamiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Buning natijasida quruqlik ichimlik, ya'ni chuchuk suv bilan ta'minlanadi. Agar yer

sharidagi barcha suvni 1 banka deb hisoblasak, shu suvning 2,05 foizi chuchuk suvga to'g'ri keladi.

Biolog: —Darvoqe, inson organizmining 65 foizini suv tashkil etadi. Yosh o'tib borishi sayin miqdor ham kamayib boradi. Barcha tirik organizmlarda suv muvozanati mavjud bo'lib, moddalar almashinuvida katta ahamiyatga egadir.

Bir sutkada insonning ovqat hamda chanqog'ini bosish maqsadida iste'mol qilingan suvi taxminan 2-2,5 litrni tashkil etardi. Buyraklar orqali moddalar almashinuvi natijasida suvning 50-60 foizini tashqariga chiqarib yuboriladi. Suvga oid ayrim ma'lumotlarni keltirib o'taman:


- Suv tarkibida odam organizmi uchun zarur bo'lgan yigirmaga yaqin mikroelementlar borligi aniqlangan.
- Ftor oziq-ovqatlar bilan juda kam miqdorda singadi. U asosan suv bilan organizmga kiradi.
- Qovunda 16-18 foiz, tarvuzda 6-11 foiz, qovoqda 8-10 foiz qand va turli moddalar bor. Ammo ularning asosiy qismi suvdan iborat.
- Olinadigan hosilning har tonnasi uchun bug'doyga 1500 tonna, sholiga 4000 tonna suv sarflanadi. Bir bosh karam sutkasiga 1 kg.suvni ichadi.

Fizik: —Suv haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun suvning fizik xususiyatlarini bilishi muhim ahamiyatga ega.



Toza suv rangsiz, ta'msiz, hidsiz, tiniq suyuqlikdir. Hid bilan ta'mni suvda unda erigan qo'shimchalar beradi. Suv uch xil holatda uchraydi. Suvning 4° C dagi zichligi 1000 kg.m³. Harorat pasaygan sari suvning zichligi kamayib, muzning zichligi 900 kg.m³ gacha pasayadi. Shuning uchun muz suvning ustida qalqib yuradi.

Suv 0° C da muzlaydi, 100° C da qaynaydi va bug' holatiga o'tadi. Suv ajoyib universal erituvchi modda bo'lib, o'zida juda ko'plab anorganik va organik moddalarni eritish xususiyatiga ega.


Kimyogar: —Suvning fizik xususiyatlarini eshitdingiz. Suv o'ziga xos kimyoviy xossalarga ham ega. Suv 100° C dan yuqori haroratda suv bug'lari parchalanib, vodorod va kislorod hosil qiladi. Aktiv metallar bilan ta'sirlanib uning tarkibidagi vodorodni ajratib chiqaradi.



Suvning reaksiya qobiliyati ancha katta. Ko'p metallar va metallmaslarning oksidlari suv bilan ta'sirlashganda asos va kislotalar hosil bo'ladi.



Ba'zi tuzlar suv bilan kristallogidratlar hosil qiladi.



Boshlovchi: —Suv haqida ko'p ma'lumotlarni aytib o'tdik. Lekin hozirda suv bilan bog'liq bo'lgan global muammolar mavjud. Bu haqida ekolog nima deydi?

Ekolog: —Hozirgi paytda asosiy muammolardan biri bu suvning ifloslanishi va chuchuk suvning yetishmasligidir.

Suv 2 xil holatda ifloslanadi:

1. Tabiiy: tabiiy ofatlar, shamol, dovul, yashin va sellar, kosmik changlar, vulqonlarning otilishi, o'simlik va hayvonlarning o'lishi va chirishi sabab bo'ladi.

2. Sun'iy: sanoatning turli tarmoqlari, neft mahsulotlari, kimyoviy o'g'itlar va chiqindilar, maishiy kommunal shaxsiy xo'jalik chiqindilari sabab bo'ladi.

Bizning vazifamiz birinchidan suvning ifloslanishini oldini olish, ikkinchidan iflos suvni tozalash.

Suv shunday mo'jizaki, u o'zini-o'zi tozalash xususiyatiga ega. Suvdagi bakteriyalar, zamburug'lar va suv o'tlari suvni tozalaydi.

Bugungi fan taraqqiyoti suvni tozalashning 4 usulini amalga oshirmoqda.

1. Mexanik usul. Maxsus qurilmalar yordamida suvga qo'shilgan erimagan og'ir zarralar suv yuzidagi moy, yog', neft, va boshqa organik mineral moddalar ushlab qolinadi.

2. Biokimyoviy usul bilan tozalashda turli mikroorganizmlardan foydalaniladi.

3. Fizik-kimyoviy usulda suvdagi iflos moddalar maxsus erituvchilar yordamida parchalanadi, ajraladi, eriydi va quyug'lashadi.

4. Dezinfeksiya usulida turli kimyoviy moddalar bilan ishlov beriladi. Masalan: Suvni xlorlash, bir muhim muammolarimizdan yana biri bu Orol muammosidir. Prezidentimiz I.Karimov o'z asarlarida Orol muammosi, unga yordam berish va muammoning oldini olish haqida alohida ta'kidlab o'tganlar.



Boshlovchi: —Mana, suv haqida barcha fan sohalari vakillarining ma'lumotlarini eshitdik. Qani, tibbiyot xodimi suv haqida nima deydi?

Tibbiyot xodimi: —Jamiyatni suvsiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunimiz kelajagimizning farovonligi va sog'lom hayot tarzimiz, atrof- muhit go'zalligi va tozaligi bularning barchasi suvga bog'liq.

Suv shifobaxsh ne'mat. Tarkibidagi minerallarning turi, miqdoriga qarab shifobaxsh buloqlar aniqlanqan. Masalan: Omonxona, Andijondagi shifobaxsh buloqlarni misol keltirishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda suv bilan bog'liq bo'lgan muammolar talaygina. Masalan: har xil yuqumli kasalliklarni tarqalishining bir yo'li suv orqali amalga oshadi. Shuning uchun suvni toza saqlash, iloji boricha qaynatilgan suvni iste'mol qilish zarur.

Boshlovchi: Endi talabalarimizning sizlarga beradiga savollari bor. Marhamat.

1-talaba: —Suvning qattiqligi nimaga bog'liq?

Kimyogar: —Suvning qattigligi asosan unda kalsiy va magniy tuzlari borligiga bog'liq. Suvning qattiqligi 2 xil bo'ladi:

1. Muvaqqat yoki yo'qotiladigan qattiqlik.
2. Doimiy qattiqlik.

Suvda $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ va $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$ borligi tufayli kelib chiqadigan qattiqlikni yo'qotiladigan qattiqlik deyiladi. Bunday qattiqlik suvni qaynatish bilan yo'qotiladi.

Agar suvda CaSO_4 va MgCl_2 bo'lsa, bu tuzlar keltirib chiqaradigan qattiqlik doimiy qattiqlik deyiladi. Bunday qattiqlikni qaynatish yo'li bilan yo'qotib bo'lmaydi.

2-talaba: —Suvning isrofgarchiligini oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish zarur? Bu savol yuzasidan har bir soha vakillari o'z fikrlarini bildiradilar.

Suvni isrof qilmaslik, undan tejab foydalanish har birimizning burchimiz hisoblanadi. Suvni isrofgarchiligini oldini olish uchun:

Birinchiidan, ariqlardan oqayotgan suvni bekorga oqishining oldini olish. Ikkinchiidan, vodoprovod suvidan foydalangandan so'ng jo'mragini yopib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Hattoki ro'zg'orda suvdan foydalanganda ham undan foydalanish ham suv isrofgarchiligining oldini oladi.

Boshlovchi: —Endi navbatni chiroyli qo'shiq va raqsga beramiz. (Qo'shiq ijro etiladi)

Xulosa

"Suv — hayot manbai" deb nomlangan ushbu tadbir maktabda fanlarning bir-biriga uzviy bog'liqligini ta'minlaydi.

Talabalarning tafakkurini shakllantirishga dunyogarashini kengayishiga yordam beradi.

Talabada atrofda sodir bo'ladigan jarayonlarga o'z munosabatini bildirishga, ekologik muammolarga befarq bo'lmasligiga erishiladi.

Talabalarni—vatanga muhabbat, tabiat va suvni asrab-avaylash ruhida tarbiyalaydi. [10]

«Tabiatning o'zi – tabib » nomli ekologik tadbir senariysi.

Maqsad: yoshlarni Abu Ali ibn Sino, Zaxiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk tabiatshunos ajdodlarimizning ijodlari bilan tanishtirish, shifobaxsh o'simliklar, mevalar, sabzavotlarning xususiyatlarini, qolaversa tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: «Tib qonunlari» kitobi shifobaxsh o'simliklar haqida bukletlar, har bir shifobaxsh o'simlikning tasvirlari aks ettirilgan rasmlar.

Boshlovchi: — Assalomu alaykum, aziz ustozlar va talabalar. Bugungi «Tabiatning o'zi—tabib» nomli kechamizga hush kelibsiz. Kechamizni ochib berish uchun so'z navbatini kollejimizning biologiya fani o'qituvchisiga beramiz.

O'qituvchi: — Insoniyat qadim zamonlardan kasalliklarni davolashda turli xil

ko'kat, meva, sabzavot va o'simliklardan foydalangan. Asrlar osha shifobaxsh o'simliklar bilan davolash bo'yicha boy tajriba to'plangan. Sharqning buyuk olimlari Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy dorivor o'simliklar bilan bemorlarni davolaganlar.

1. Talaba: — Abu Ali ibn Sino (980—1057) O'rta Osiyoning buyuk faylasufi va tabibi bo'lib, uning asl ismi Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino. U Buxorodan uncha uzog bo'lmagan Afshona qishlog'ida tug'ilgan.

2. Talaba: — Abu Ali ibn Sinoning shoh asari bo'lmish «Kitob al- qonun fit-tibb» (Tib qonunlari) kitobidan shifokorlarimiz unumli foydalanib kelmoqdalar.

3. Talaba: — Abu Ali ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid asarlar yaratgan.

4. Talaba: — Turli manbalarda Abu Ali ibn Sinoning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo'lsa ham, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pchiligi yo'qolgan va bizgacha faqat 247tasi yetib kelgan, shulardan 43tasi tibbiyot ilmiga bag'ishlangan.

5. Talaba: — Asarda qayd etilgan dorivor o'simliklarning 396 turidan 165tasi tibbiyotda qo'llanilmoqda.

Boshlovchi: — Endigi navbat shifobaxsh o'simliklarga.

Gulxayri. Ildizidan tayyorlangan damlama, ko'kyo'tal, o'pka shamollashi, nafas qisishi, ko'krak og'rig'i kasalliklarida yumshatuvchi, og'riq qoldiruvchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Moychechak. Bog'larda yayrab o'saman,

Husnda-chi oychechakman.

Chopishib, maydalashar,

Taomlarga solishar.

Tanimda spirt bisyor,

Biroz tanil modda bor.

Ko'p kimyoviy xislatlar,

Meni xizmatga chorlar.

Isiriq — qadim zamonlardan beri sharq xalqlari tibbiyotida qo'llanib kelinayotgan shifobaxsh giyohlardan hisoblanadi. Undan tayyorlangan qaynatma va damlamalardan bezgak, tutqanoq, asab va shamollash bilan bog'liq kasalliklarni davolashda foydalaniladi.

Oddiy jag'-jag' tarkibida C va K darmondori, olma va limon kislotalari bor. Uning yer ustki qismidan tayyorlangan dorilar, tabobatda qon ketishining oldini olishda ishlatiladi.

Yerbag'ir tugmachagulning quritilgan bargi, guli va urug'i xalq tabobatida ichni yumshatuvchi dori sifatida ishlatiladi.

Boshlovchi. Endigi navbat «Bahor qizlari» guruhi ishtirokidagi raqsga. Undan so'ng esa shifobaxsh mevalarga.

Anor — xalq tabobatida o'zining po'stlog'i, mevasi va meva po'sti, shuningdek, o'simlik guli qo'tir, yo'tal, ichburug', sariq kasalliklarida, siydik haydash, tishni mustahkamlash, yaralarni va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Behi mevalarning shifobaxshligi qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, uning tarkibida 74,7-85,5 % suv, 8,5-15,2 % qand, 0,2-1,5 % C vitamini va Fe, Cu, Ca tuzlari mavjud. Xalq tabobatida behi mevasining sharbati bilan astma, yurak, sariq, qorin og'rig'i, dizenteriya kasalliklarini davolash tavsiya etiladi. Behi mevasidan tayyorlangan damlama yo'g'on ichakning yallig'lanishiga davo hamdir.

Yong'oq tarkibida yog', 21 % oqsil, 7 % uglevod, ko'p miqdorda C, B, B_j vitaminlari, mineral tuz va mikroelementlar bor. Yong'oq mag'zi, gijjalarni haydash va uyqusizlikning oldini olish uchun ishlatiladi. O't pufagi, tosh kasalligi va yurak ishemiyasi kasalligida yaxshi samara beradi.

Limon mevasi tarkibida organik kislotalar, efir moyi, qand, C, B, B₂, P vitaminlari, karotin bor. Uning po'sti efir moyiga boy. Limon mevasi hamda bargidan tayyorlangan damlama qon bosimini pasaytiruvchi dori sifatida, shuningdek, qand kasalligida ishlatiladi.

O'rik me'da uchun shaftolidan ko'ra muvofiqroqdir. Turshak suvi tashnalikni qondiradi. Ivitilgan turshak isitmaga foydali. Xalq tabobatida yurak og'riganda, xafaqon kasalligida o'rik mag'zidan choy damlab ichish tavsiya etiladi.

Boshlovchi: — Hozir navbat «Balli yigitlar» ijrosidagi raqsga, undan so'ng sabzavot va poliz ekinlariga.

Sabzining ildizmevasida B, B₂ B₆, PP, C, K vitaminlar, ferment, efir moyi, yog', Ca, P va Fe tuzlari mavjud. Shuning uchun ham sabzi kishi organizmining, ayniqsa, yosh bolalar organizminig rivojlanishi uchun juda zarur. Sabzi kamqonlikda, darmonsizlikda, yurak, jigar, buyrak kasalliklarini davolashda tavsiya etiladi.

Sarimsoq — sabzavotlar qirol. Uning shifobaxsh xususiyatlari hammaga ma'lum. U immunitetni ko'taradi, ezilgan sarimsoq bosh terisiga surtilsa, soch to'kilishining oldi olinadi, shuningdek, husnbuzarlarni yo'qotishda ham ishlatiladi.

Turp — qizamiq, bronxit, o'pka sili kabi kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Uning qaynatib pishirilgani eski yo'talga foydali.

Sholg'om — o'pka, nafas yo'li kasalliklarida, isitma baland bo'lganda, yurak bezovtalanganda foydalaniladi.

Qovoqdan tayyorlangan damlama ko'krak og'riganda, quruq yo'talga chalinganda tavsiya qilinadi. Qovoq eti tarkibida 11 % qand, C, B₁ B₂ vitaminlar, K, Ca, Mg, P, Fe mikroelementlari bor. U organizmdan xolesterinni chiqarib tashlashga ko'maklashadi.

Maymunjon qaynatmasi yaxshi terlatuvchi, haroratni pasaytiruvchi hamda shamollash bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni davolovchidir.

Zira mevasi qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Uning tarkibida 2,75-3 % efir moyi bor.



Boshlovchi. Bugungi tadbirimizdan o'simliklarning shifobaxshligi va tabiatdagi o'nri haqida ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsangiz, bundan benihoya xursandmiz.

Ushbu tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsad talabalarning kelajakdagi mustaqil hayotida, tabiatni asrab-avaylash, uni kelajak avlodlarga hozirgidek yetkazish ustivor vazifa. Bundan tashqari yoshlar o'z shahsiy hayoti mabaynida turli xil kasalliklar uni bezovta qilganida sun'iy dori-darmonlardan tashqari tabiat in'om etgan nematlardan foydalanib o'z sog'liklarini tiklash imkoniga ega bo'ladilar.

Xulosalar.

1. Prezidentimiz I.A.Karimovning barcha asarlari va ma'ruzalarida hozirgi globallashuv jarayonida ekologiya hamda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, shuningdek ekologiyaga oid fikr-mulohazalar, yoshlar ongida ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish hamda ularni hayotga tadbiq etish zarur ekanligi, bunday tadbilar jarayonida pedagoglarning ro'li beqiyosligini aytib o'tgan.

2. Ekologik madaniyatli shaxsning asosiy fazilatlari va ko'rsatkichlarini uzluksiz ta'lim tizimida bolalar bog'chasidan boshlab ta'lim turlari bo'yicha bosqichma-bosqich shakllantirish tartibi ishlab chiqildi. Barcha ta'lim turlarida talablar majmuasi, tarbiya mazmuni va diagnostikasiga oid faoliyat amalga oshirilishi belgilandi.

3. Ekologik bilim va ko'nikmalarga ega shaxsga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda yoshlar ega bo'lishi zarur bo'lgan ko'rsatkich va fazilatlarni

shakllantirishni ta'minlovchi maxsus kurslar va ekologik tadbirlar ularning dasturlari hozircha kasb-hunar kollejlari uchun tajriba-sinov shaklida ishlab chiqish zarur.

4. Talabalarga tabiiy fanlarni o'qitish orqali atrof-muhit muhofazasi va ekologik bilim hamda malakalarni oshirishni taqozo etadi. Bu maqsadni amalga oshirishda talabalar o'rtasida ekologik tadbirlar o'tkazish muhim o'rin tutadi.

5. Ekologik tadbirlar o'tkazish orqali kasb-hunar kollejlari talabalari mustaqil fikrlashga ijodkorlikka o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.:Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit muhofazasi to'g'risidagi Milliy ma'ruza. T. 2006y
3. A. Abdukarimov, A. G'ofurov va boshqalar "Biologiya" akademik litsay va kasb-hunar kollejlari uchun darslik T. "Sharq" 2009y.

4. J. O. Tolipova, A. S. To'xtayev, O'. Prator Botanika o'qitish metodikasi 5-sinf uchun. T. "O'zbekiston" 2003 y.
5. J. O. Tolipova, A. S. To'xtayev, O'. Prator Botanika o'qitish metodikasi 6-sinf uchun. T. "O'zbekiston" 2003 y.
6. "Maktabda biologiya" T., "KO'HI-NUR" 2014y 6-son
7. "Maktabda biologiya" T., "KO'HI-NUR" 2011y 3-son.
8. O. Mavlonov, S. Najimova, M. Nishonboyeva Zoologiyani o'qitish metodlari va texnologiyalari 7-sinf uchun. T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2005y.
9. P.S. Sultonov, B.P. Ahmedov Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari T. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot" 2004 y.
10. Tursunov X. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T. "O'zbekiston" 1997 y.
11. Tursunov X. Ekologiya va barqaror rivojlanish. Toshkent, 2009y.
12. To'xtayev A.S., Tillaboyeva M.N. "Rang-barang tabiat" T., "Yozuvchi" 2002y.
13. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. T., "PRINT LINE GROUP" 2015y 1-son
14. Ziyomammedov B. Ekologiya va ma'naviyat. Toshkent, 1997y
15. Ziyamuhamedov B.. Ekologiya va madaniyat.-T.: "Maxnat".1997.
16. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Табиатни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан рационал фойдаланиш. Тошкент. Ўқитувчи. 1983 й.
17. Рахмонова А. Экологиянинг hozirgi zamон muammolari fanidan ma'ruzalar elektron versiyasi. Toshkent 2005 й.
18. Эргашев А. Умумий экология. Тошкент. "Ўзбекистон". 2003 й.
19. www.ziyonet.uz

20. www.nature.ru
21. www.ecology.uz
22. www.google.ru

Ilovalar.

Qushlar bayrami tadbiridan lavhalar



Suv - hayot manbai tadbiridan lavhalar



Hisor davlat qo'riqhonasi



Nurota davlat qo'riqhonasi



Ugom-Chotqol davlat tabiat milliy bog'i



Zomin milliy tabiat bog'i



Chotqol davlat biosfera qo'riqhonasi

